

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MEDIASAVODXONLIGINING AHAMIYATI VA MEDIA IMKONIYATLARI.

Mahammadumarov Hojiakbar Iqboljon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar : Xudoberdiyev Jamoliddin

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitish jarayonida mediasavodxonligining o'rni va uning amaliy, ta'limiy va kommunikativ ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi va media vositalari taqdim etgan imkoniyatlari, muammolari, va ularga yechimlar batafsil yoritiladi. Raqamli media vositalarining tobora rivojlanib, ommalashib borayotgani til o'rganishda zamonaviy metodik yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Shu boisdan, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish hozirgi davrning eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, xorijiy tillar, raqamli resurslar, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish mahorati, native, media matni, interaktiv yondashuvlar,

Abstract: This article discusses the role of media literacy in the process of teaching foreign languages and its practical, educational and communicative significance from a scientific point of view. The increasing development and popularity of digital media tools are creating modern methodological approaches to language learning. Therefore, the formation of media literacy skills between students and teachers is one of the most important issues of the present time.

Keywords: media literacy, foreign languages, digital resources, critical thinking, communication skills, media text, interactive approaches

Hozirgi rivojlanib berayotgan raqamli jamiyatimizda medianing o'rni va ahamiyati tobora yuqori pog'onalarga ko'tarilib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlam doiralari va sohalarga kirib kelmoqda. Ayniqsa, buni ta'lim jarayonida yaqqol sezish mumkin.

Xususan, chet tillarni o'qitish va o'rganishda zamonaviy media taqdim etgan imkoniyatlar: tilni tabiiy muhitda eshitish, ko'rish va tushunish; qo'shimcha resurs va materiallardan foydalanishga imkon beruvchi asosiy manbaga aylangan. Shu bilan

bir qatorda, Mediasavodxonlik tushunchasi - bu media matnlarini tushunish, unda tarqalgan ma'lumot, yangilik va xabarlarga ijtimoiy munosabat bildirish olish, tahliliy yondashish va raqamli resurslardan foydalanishda shaxs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda to'g'ri baholay olish qobiliyatidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, media madaniyatini xorijiy tillarni o'rganish qatlami doirasida tahlil qiladigan bo'lsak, media vositalaridan foydalanish oddiy texnik amaliyot emas, balki til o'rganuvchining kommunikativ kompetensiyasi (samarali muloqot qilish mahorati) ni shakllantirishda didaktiv¹⁴⁹ mexanizm vazifasini ham o'taydi.

Mediasavodxonligining chet tillari sohasidagi asosiy vazifalaridan biri bu - tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ya'ni tillarni o'qitish jarayonida media taqdim etgan ma'lumotlarning faktga asoslagan yoki asoslanmaganligi, foydali yoki foydasizligiga qarab soxta xabarlarni aslidan ajrata olish ko'nikmasidir. Tanqidiy savodxonlik g'oyalar va matnlarni so'roq qilish va tekshirishni o'z ichiga olgan markaziy fikrlash qobiliyatidir. U matn ichidagi til va kuch o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Freire (1985) fikricha, tanqidiy savodxonlikning maqsadlaridan biri dunyoni o'qish bilan birga so'zni o'qishdir. Tanqidiy fikrlash - bu oqilona xulosa chiqarish uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish. Tanqidiy fikrlovchi bo'lish uchun biz o'z qarashlarimizni tushunishimiz kerak, lekin yangi g'oyalar va istiqbollarga ochiq bo'lishimiz kerak. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Siyosatshunoslik fakulteti sifatida, ehtimol, boshqa fanlar bo'yicha fakultetdan ko'ra ko'proq, talabalarimizga haqiqat va yolg'on ma'lumotlarni qanday ajratishni o'rgatish mas'uliyati darsda ko'proq vaqtimizni oladi. Bu ko'proq tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'rgatish va bu ko'nikmalarni mustahkamlash uchun kurslarimizga tegishli topshiriqlarni kiritishni talab qiladi. Xulosa shuki, biz endi avvalgidek o'rgata olmaymiz – talabalarimiz kollej sinfiga birinchi kirishlaridan boshlab o'z ta'lim tajribasiga egalik qilishlari shart. [1] A. Абдыхалыкова — Media Literacy through Critical Reading in English Language Teaching .2024-yilda chop etilgan maqolada, ingliz tilini o'rgatishda mediasavodxonlik asosida “tanqidiy o'qish” (critical reading) ko'nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Talabalar media matnlarini (maqolalar, blog postlari, ijtimoiy media postlari) analiz qilish orqali leksika va pragmatik jihatdan boy kontekstda ishlashadi. [2]

Tilni tabiiy holda o'rganish esa bevosita o'rganayotgan tillarni media orqali "native"¹⁵⁰ bo'lgan insonlar qo'yib boradigan doimiy vlog, intervyu, podkastlar va shu kabi kontentlar orqali samarali o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, ingliz

¹⁴⁹ Didaktiv – ta'limga xizmat qiluvchi [atama]

¹⁵⁰ Native -mahalliy, ya'ni o'sha millatning to'liq ravishda mahalliy tilida so'zlashuvchi fuqorasi [atama]

tilini o'rganayotgan talabalar dars davomida "Baxtga intilish" filmini tahlil qilganda, ular nafaqat lingvistik shakllar, balki mehnatkashlik, oilaviy qadriyatlar va shaxsiy mas'uliyat haqidagi amerikacha qarashlarga ham duch keladilar. Talabalardan biri ta'kidlaganidek, filmni o'rganish jarayoni ularga o'rganayotgan til ortida qanday ijtimoiy muhit va real hayot tajribasi yotganini, ehtimol, birinchi marta tushunishga yordam berdi. Natijada, talaba nafaqat so'z boyligini kengaytirdi, balki qahramonlarning muloqot uslubi, ohangi va ijtimoiy munosabatlari orqali ingliz tilining madaniy kontekstini ham tushuna boshladi.[3]

Xorijiy tillarni o'qitishda media taqdim etgan imkoniyatlar

Barchamizga ma'lumki, har bir tilni o'rganishda uning leksik, morfolgik, sintaktik va fonetik jihatlarini ham inobatga olish zarur. Biroq chet tillarini o'qitish zamonaviy metodikasida esa asosiy diqqat grammatikaga emas, balki tilning real hayotda qo'llanilishi „muloqot uslubini erkin holda interaktiv usullar bilan o'stirish kabi ijtimoiy yondashuvlarni aynan mediasavodxonlik va media mahsulotlari taqdim etadi. Ulardan:

▪Audio va video manbalar:

O'quvchi va talabalar podkastlar, intervyular va BBC Learning English, TED-ED talks kabi platformalarda tinglab tushunish mahoratini egallashlari mumkin.

Gilakjani vizual, eshitish va kinestetik o'rganish uslublari o'quvchilarning ikkinchi tilni egallashdagi muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ushbu o'rganish uslublarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgandarslar tilni o'zlashtirish tezligi va sifatini yaxshilaydi. Media resurslari ushbu uslublarni samarali qo'llab-quvvatlaydi: videolar vizual va eshitish o'quvchilarini jalb qiladi, interaktiv va amaliy mashg'ulotlar kinestetik o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, texnologiya takomillashtirilgan materiallar individual va o'quvchiga yo'naltirilgan o'qitish imkonini beradi.[4]

▪O'qituvchilar yaqin o'tgan yillarda qo'llab kelgan standard metodikalar o'rniga esa media yordami bilan mavzuni mazmun-mohiyatini o'quvchiga to'liq yetkazib, yoritib berishda interaktiv usullardan (video lavhalar, online traininglar, audio scriptlar) foydalanishi mumkin

▪. O'qituvchilar o'z talabalari va o'quvchilarini mustaqil izlanishiga yo'nalirishi mumkin, albatta, media yordamida.

▪"Shadowing" metodi bu- til o'rganish usuli bo'lib, soya texnikasi hisoblanadi, ya'ni video lavhada "native" so'zlashuvchini diqqat bilan kuzatish va unga taqlid qilishni o'z ichiga oladi. Bu talaffuz, intonatsiya va umumiy tilning ravonligini yaxshilash uchun qo'llanadigan usuldir. Sizni qiziqtirgan video materiallarni tanlaysiz

va soya texnikasidan foydalanasiz. Demak, qancha ko'p shug'ullanish, amaliyotni shunchalik samarali qiladi. [5]

▪ "Game based learning" (o'yinga asoslangan ta'lim)

Chet tillarini o'qitish ta'lim jarayonini yanada samara qilish uchun Duolingo, Kahoot, Blooket, Coursera, Quizlet, va shu kabi internetdagi platformalar, sayt va ilovalar orqali o'qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarliroq qilishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda media vositalaridan foydalanishdagi muammolar va ularga yechimlar.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti va internetdagi cheksiz media manbalari hajmining tobora kengayib borishi, pedadagogik jihatdan materiallarni tanlashni qiyinlashtirmoqda, Bu esa haqiqiy ma'lumotni, soxtasidan ajratib olishga to'sqinlik qilmoqda. Xo'sh, bunga yechim siftida qanday choralarni ko'rish maqsadga muvofiq?

Birinchidan, Media vositalaridan foydalanayotgan jamiyatimiz a'zolari nafaqat til o'rganishda, balki qolgan sohalarda ham ishonchli ma'lumotni, yolg'on xabardan ajratib olishda mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, har bir media materiallaridan foydalanishdan oldin uning ustida kichik tahliliy va amaliy ishlarni o'tkazib ko'rish lozim. Bunda esa, asosan, shu media kontentini asosiy mazmunini talaba va o'quvchilarga yetkazishda muallifning asosiy maqsadi nimada, media matnining til me'yorlariga amal qilinganligi, fakt yoki shunchaki subyektiv fikr ekanligini farqlash muhim tekshiruv usullaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mediadan xorijiy tillarni o'rganishda faqat tomoshabin sifatida qolish, ma'lumotlarni faqat passiv olish kifoya qilmaydi. Til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun esa media orqali o'zlashtirilgan ma'lumotlarni amaliyotda ham qo'llash zarur,

Shunindek, dars jarayonida ayrim vaziyatlarda o'qituvchilar an'anaviy dars uslubiga ko'proq tayanganligi tufayli, zamonaviy media platformalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, shu kabi muammolarni oldini olish uchun online kurslar, seminarlar va webinarlar orqali bo'yicha malaka olishlari maqbul.

Xulosa qilib atganda, XXI asr fan va texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlik o'quvchilarning axborotlarga nisbatan ongli munosabatini shallantiradi. Tanqidiy fikrlash va real hayot kontekstiga asoslangan ma'lumotlarni o'zlashtirishi va media vositalari orqali ta'limiy va

texnik imkoniyatlarni o'zlashtirib chet tillar bilish, eshitish, tushunish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

REFERENCES:

1. Prepared for presentation at the International Political Science Association Meeting, July 15-19, 2023, Buenos Aires, Argentina [reference]
2. Abdykhalykova, A. M., Kussanova, B. Kh., & Daurenkyzy, A. (2025). Медиаграмотность через критическое чтение в преподавании английского языка. Scientific Journal of Pedagogy and Economics, 415(3), 48–62. <https://doi.org/10.32014/2025.2518-1467.951>
3. "The Pursuit of Happiness" film review [reference]
4. Gilakjani, A. P. (2012). "Visual, auditory, kinaesthetic learning styles and their impacts on English language teaching." Journal of Studies in Education.
5. [Shadowing Technique: improve your speaking in the most effective way](https://shadowing.tech/home)
<https://shadowing.tech/home>